

# TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 7 (66288)  
2001 yil 16 fevral, juma

Sotuvda erkin narhda

ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР  
ТАВАЛЛУДИНИНГ 518 ЙИЛЛИГИГА

## ЮМУШЛАРИМИЗ БИСЁР

“Камолот” жамғармасининг ижтимоий ёшлар ҳаракатига айлантирилиши факультетимиз талабалари ўртасида ҳам қизгин баҳс-мунозараларга сабаб бўлди. Гуруҳимиз талабаларининг “мулоқот” дарсида Президентимиз томонидан илгари сурилган таклифлар бир овоздан маъқулланди. Маълумки, ёшлар ҳаёти ва ижтимоий фаолияти билан боғлиқ қатор муаммо ва камчиликлар ўз ечимини кутмоқда. Бу нуқсонларни бартараф этишда янги тузилган ёшлар ижтимоий ҳаракатининг аҳамияти каттадир. Мустақил ҳаёт оstonасида турган ёшларнинг бошини қовуштириш, эзгу-мақсадлар йўлида бирлаштириш, орзу-умидларини қўллаб-қувватлаш, уларга тўғри йўл кўрсатиш давр талабидир. Очiq мулоқот дарсида ана шу масалаларни ечишга қаратилган “Камолот” ижтимоий

ёшлар ҳаракати олиб бориши зарур бўлган юмушлар ҳақида талабалар томонидан таклифлар билдирилди.

Муроджон УРИНБОЕВ,  
УЗМУ журналистика  
факультети 1-босқич  
талабаси.

sovg'a-salomlarimizni taqdim etamiz, kuzgi hosilni yig'ib-terib olish ishlariga

ko'maklashamiz. Bizning ota-onalarimizga saboq bergan Pokiza opa degan o'qituvchimiz hozirda qarilik gashtini suryaptilar. Biz ularni Pokiza buvi, deya ardoqlaymiz. Uyojoylarini supurib-sidiramiz, kirlarini yuvib beramiz. Bayramlarda konsert dasturlari tayyorlab, dillarini shod qilishga harakat qilamiz. Toshpo'lat ota Xolmatov ham guruhimizning beminnat xizmatlaridan mamnunlar, qo'llarini duoga ochib, alqab qoladilar. Qishlog'imizda bunday qariyalar talaygina. Bizning maqsadimiz esa ularning og'irini yengil qilish, ko'ngillarini shod etishdir.

Zumrad TO'LABOYEVA,  
Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tumanidagi  
14-maktab o'quvchisi.



RUBOYLAR

Ishlar bori ko'nguldagidek bo'lg'usidur!  
In'omu vazifa — bori buyrulg'usidur!  
Ul g'allayu mahmilki, deb erding, bildim,  
Mahmilg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur!

...

Har kimki, vafo qilsa — vafo topqusidur!  
Har kimki jafo qilsa — jafo topqusidur!  
Yaxshi kishi ko'rماغay ±monlik hargiz,  
Har kimki, ±mon bo'lsa — jazo topqusidur!

...

Qish bo'ldiyu bo'ldi borcha tomu tosh qor,  
Ja'miyati bor kishiga bordur xush qor.  
Bu qishda ±mon yo'lu parishon holim,  
Ÿ rab, meni yaxshiliq sori boshqor!

...

Ahbobki, bazmida guliston xasdur,  
Yo'q lek alar bazmida bizga dastur,  
Gar sizda huzur birla jam'iyat bor,  
Yuz shukr, bu jam' behuzur ermasdur.

...

Kim bor anga ilm tolibi — ilm kerak.  
O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!  
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q.  
Men bormen ilm tolibi — ilm kerak.

...

Zinhorki, do'stluqni unutmag'oysen,  
To'qqonlig'din ko'ngulni sovutmag'oysen.  
Ÿtlar bila dushman tarafin, gar, tutsang,  
Tuqqonlig'u do'stlug' tama' tutmag'oysen!

...


Necha bu falak solg'usi g'urbatqa meni,  
Har lahza tugongusiz mashaqqatqa meni.  
Ne chora qilay, netayki, tengri go'±,  
Mehnatni menga yaratti, mehnatqa — meni.

...

Gar mehr bila bu charx evrusla edi,  
Jonlardin aning javfi kerak to'lsa edi.  
Bobur kibi jong'a mehr bog'lar edim,  
Gar ushbu jahonda mehr, jon bo'lsa edi.

## КАМОЛОТГА КЕНГ YO'Л МАQSADIMIZ — EZGULIK

Changtepa qishlog'idagi 14-maktabda o'qiyimiz. YAqinda maktabimizda Bolalar tashkiloti tuzildi va biz unga a'zo bo'ldik. Ayni kunlarda „Temuriylar avlodi“ nomli qadrlash yo'nalishi bo'yicha ish olib boryapmiz. Guruhimizga 5—7-sinf o'quvchilari a'zo bo'lishgan. Biz qishlog'imizdagi kekxa, yordamga muhtoj bo'lgan insonlarga qo'maklashamiz. Bayram va tantanalarda o'z qo'limiz bilan yasagan



## ВАЪДА ВАФОСИ БИЛАН...

2001 йил учун “Тонг юлдузи” газетасига обуна бўлишда Хоразм вилояти охиридан иккинчи ўринни эгаллабди. Демак, хоразмлик ўқувчилар газетхон эмас эканлар-да, деган фикрга бордик.

Вилоят Халқ таълими бошқармаси бошлиғи Йўлдош ака Бобожонов билан телефон орқали боғланиб, вилоятдаги янгиликлар ва албатта обуна кўрсаткичлари билан қизиқдик:

— Маълумки, ушбу йилимиз “Оналар ва болалар” йили деб эълон қилинди. Жисмонан ва маънан соғлом болани вояга етказиш биз катталарнинг бурчимиздир. Олти ёшгача бўлган боланинг зеҳни анча ўткир бўлади. Нима ўргатилса, дарров илғаб олади. Шу мақсадда мактабларимизда олти ёшлилар синфларини ташкил қилганмиз. Улар шанба ва якшанба кунлари машғулотлар ўтишади. Вилоятимизда 14 та иқтидорли болалар боғчалари бор. Уларда тарбияланаётган кичкинтойлар инглиз, немис, француз тилларидан сабоқ оляптилар.

Яқинда бешта уй боғчалари ҳам ташкил қилдик. Ишламай ётган саккизта боғчамиз эса хусусийлаштирилди.

Мактабларимизда ҳам бир қатор ибратли ишлар йўлга қўйилган. Республикада бўлаётган педагогик таълим соҳасидаги янгиликларни мактабларимизга олиб кириш мақсадида ижодкор ўқитувчиларнинг ташаббускор гуруҳини ташкил қилганмиз. Барча мактабларимизда мониторинг хоналари бўлиб, ундан ҳар бир ўқитувчининг иш дафтари ўрин олган. Шунингдек, ўқувчиларнинг ўзлаштириши ҳам назорат қилиб борилади.

Ҳар бир фандан ойда бир маротаба очик дарс ўтиляпти. Ушбу дарсларга ота-оналарни, ўқитувчиларни, мактаб директорлари-

ни таклиф қилаяпмиз. Бу эса ўқитувчи-ю ўқувчиларнинг ўз устида ишлашларини талаб қилаяпти.

Республикада биринчилардан бўлиб давлат тест маркази билан алоқа ўрнатдик. Унда ўқувчилар билимини узоқ масофадан аниқлаш тест марказини ташкил қилганмиз. Вилоятимиз ўқувчилари олий ўқув юртига қабул қилинишида республикада учинчи ўринда туришибди.

Болажонларимиз нафақат билимдон, балки спортсевар болалар ҳамдирлар. Кунни-кеча ёш спортчиларимиз олимпиада умидлари мусобақасининг мактаб босқичини яқунладилар. Айни кунларда туман босқичига тайёргарлик кўришяпти. Унга жойлардаги ҳокимлик вакиллари, маҳалла фаоллари, ҳомийлар жалб қилинган. Беллашувларда Урганч шаҳри, Шовот, Хива, Қўшқўпир туманлари мактаб ўқувчилари тенгдошларига ўрناق бўлаяптилар.



Обуна масаласига келсак, болаларимизни газетхон эмаслар, деёлмайман. Ҳар бир синф бир донадан бўлса ҳам “Тонг юлдузи” газетасига обуна бўлишга ҳаракат қилган. Улар ўз газеталарини севиб ўқийдилар. Синф раҳбарлари билан биргаликда муҳокама қиладилар, фикр-мулоҳазаларини билдирадилар. 2001 йил феврал ойида хоразмлик 1588 нафар ўқувчилар “Тонг юлдузи” газетасига обуна бўлган бўлса, йил охирига бориб бу кўрсаткични яна шунчага оширишга ҳаракат қиламиз...

Вилоят Халқ таълими бошқармаси бошлиғи Йўлдош ака Бобожонов Хоразмда амалга ошириляётган ибратли ишлар ҳақида тўлиб-тошиб гапирдилар. Обуна масаласида берган ваъдаларига ҳам ишондик.

Бошқарма бошлиғи, Республикада биринчилардан бўлиб тест маркази билан алоқа ўрнатдик, — дедилар. Қани энди, обуна масаласида ҳам биринчилар қаторида туришса...

Феруза ОДИЛОВА.

### ИНГЛИЗ ТИЛИДА НАВОИЙХОНЛИК

Шу кунларда республикамизда Навоий бобомизнинг таваллуд кунлари кенг тантана қилиняпти. Пойтахтимиздаги 23-мактабда Собир Раҳимов тумани халқ таълими бўлими томонидан уюштирилган тадбир ҳам буюк мутафаккирнинг 560 йиллигига бағишланди. “Навоий - қалбимизда” деб номланган мазкур кечада тумандаги 23-, 219-, 133-, 243-мактабларнинг ўқувчилари фаол қатнашдилар. Мадина Абдурахмонова, Динора Исмадова, Фаррух Маҳмудов, Саиджавлон Маҳмудов, Бахтиёр Рашидов сингари ўқувчиларнинг чиқишлари, ўқитган газалу рубойлари, саҳнада ўзларини тутишлари иштирокчиларда катта таассурот қолдирди.

Мазкур мактабда инглиз тилида Навоий дарслари ҳам ўтказилди. Шоир бобомизни инглиз тилида сўзлатган ўқувчиларнинг маҳоратига ўқитувчиларнинг ўзлари ҳам юқори баҳо бердилар.

**Камола КАМОЛОВА,**  
Тошкент Иқтисодиёт Университети қошидаги лицей талабаси.



Бир куни тақдир тақазоси билан илгари бирга яшаган мақтанчоқ болта билан қалам учрашиб қолишибди. Эски қадрдон бўлганликлари учун сўзлари бир жойдан чиқиб, роса ҳасратлашибди. Қалам камтарлик билан сўз бошлабди:

экан.  
Шунда қалам яна гап бошлабди:  
—Аҳвол қалай, нима бўлди?

### КАМТАРГА КАМОЛ, МАНМАНГА ЗАВОЛ

Ёзиб, ёзиб қолгум доим,  
Чўнтакларнинг четиди.  
Нима қилай, юрибмиз-да,  
Оқ вароқнинг кетидан.  
Болта дебди: — Ишларим зўр,  
Емаганим ортимда.  
Мана кўргин, юзим ойдаи,  
Хузур қилиб қолдим-да.  
Доим мағрур бошим баланд,  
Тик қаддимни эгмайман.  
Қаердаги чопқиларга,  
Ўз ўрнимни бермайман...

Улар алламаҳалгача чақ-чақлашиб, йиғилиб қолган гапларини айтиб бўлишгач, хайрлашибди.

...Кунлар кетидан кунлар ўтиб, улар яна учрашиб қолишибди. Бу сафар тақдирлари чаппасига айланганми, қалам жуда мамнун, болтанинг эса ҳаммаёғини занг босиб кетган

Менинг эса бахтим кулди.  
Соҳибимдир олим одам,  
Кўп авайлаб, ҳурмат қилди.  
Қалам ҳақи олдим мана,  
Тинчликми, бу нима яна?  
Болта эса маънос жавоб қилибди:  
Кўз тегдими, ишимдир терс,  
Эгам қўлин чопиб олдим.  
Улоқтирди сўнг бурчакка,  
Нима қилай, ётиб қолдим.  
Қаламнинг болтага жуда раҳми келибди. Лекин начора, болтанинг мақтанчоқлиги ўзининг бошига етган эдида. Шуни атсалар керак-да, камтарга камол, манманга завол, деб.


**Холида ЛАНБАРОВА,**  
Алишер Навоий номидаги Республика Нафис санъат лицейининг 9-синф ўқувчиси.

### МЕН СИЗДАН ДАВО ТОПДИМ...

Яқинда укам бетоб бўлиб қолди. Уни шифохонага олиб бордик. Шифокор опанинг ширин сўзи, тўғри қўйган ташхиси сабаб укам тезда соғайиб кетди.

Президентимиз ушбу йилимизни “Оналар ва болалар” йили деб эълон қилганларидан сўнг, шифокорларнинг масъулияти янада ортди. Худди кўнгиллари каби либослари ҳам оппоқ шифокорларнинг қўллари ҳеч қачон дард кўрмасин. Не-не қалбларга яшашдек улуг неъматни қайта бахш этган ширинсўз шифокорлар бор бўлсин.

**Нигора ХОЛИСБОВА,**  
Тошкентдаги 5-бизнес мактаби талабаси.



### ОНАМГА О'XSHAGIM KELAR

Men o'рта maktabning yettinchi sinfida o'qiyman. Maktabimizda o'quv-tarbiya ishlari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Muallimlarimizning o'z kasblariga ixloslari balandligi, mashg'ulotlarni vijdonan o'tishlari sababli barcha fanlardan birorta ham „4“ baho olmasdan o'qiyotganimni hamda rus va ingliz tillarini yaxshi o'rganib olganimni aytсам maqtanish bo'lmasin.

Mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda onam huzurlariga ko'proq borib turaman. Onam - Komila Jumaniyozova viloyat markaziy shifoxonasi qoshidagi funksional tashxis bo'limida mudir vazifasida ishlaydilar. Ko'p yillik halol xizmatlari uchun «O'zbekiston sog'liqni saqlash a'lochisi» unvoniga sazovor bo'lganlar, oliy toifali shifokordirlar. O'tgan «Sog'lom avlod yili»da onam «Virusli gepatit bilan og'rikan homilador ayollarni davolashda ultratovush ahamiyati» mavzusida ilmiy ish yoqlab, tibbiyot fanlari nomzodi bo'ldilar.

Har kuni onam huzuriga o'nlab bemorlar tashrif buyuradilar. Bu yerda avvalo har qanday xastalikka aniq va tezkor tashhis qo'yish imkoni mavjud. Bo'limda eng zamonaviy tibbiyot uskunalari o'rnatilgan. Aniq tashhis qo'yilgan bemorni davolash oson kechadi. Men xastalikdan

forig' bo'lgan bemorlarning onamga minnatdorchilik aytib, oilalari quchog'iga baxtiyor ketganliklariga ko'p marta guvoh bo'laman. Shu bois yoshlikdan shifokor bo'lish orzuim bor. Bunday sharafli va mashaqqatli kasbni egallash, el-yurtga xizmat qilish, aqalli bir bemor qalbga shifo baxsh etishlik ulug' savob, olijanoblikdir, deb o'ylayman.

Albatta, bu orzu. Orzuga yetishish oson kechmaydi. Buning uchun hozirda maktabda faqat a'lo baholarga o'qish, darsdan bo'sh vaqtlari ham turli adabiyotlarni mutaola qilish talab etiladi.

Yurtboshimiz tomonidan 2001 yilning «Onalar va bolalar» yili deb e'lon qilinishi davlatimiz avlodlari sog'lomligiga e'tibor naqadar kattaligini ko'rsatadi. Sog'lom ona va sog'lom farzand mutanosibliги — kelajagimizni ta'minlaydigan uzviy bog'lanishdir.

Yangi, yosh avlod ko'zi oldida shu qadar zalvorli ishlar amalga oshirilayotgan, yurtboshimiz yoshlarga g'amxo'rlik namunalarini ko'rsatayotgan, ertangi buyuk kelajagimizning mustahkam poydevori qo'yilayotgan ekan, biz yoshlar ham shunga munosib yashashimiz kerak, deb o'ylayman.

**Guli RAHMONOVA,**  
Urganch shahridagi Al Beruniy nomli o'рта maktab o'quvchisi.



### ТОНГ ЮЛДУЗИ — БАХТ ЮЛДУЗИ

Тонг юлдузи юлдузлар ичра энг гўзали, энг жилвалиси ва энг ёрқинидир. Айтишларича, ҳар тонг куёш унинг жамолини кўриб қолиш учун тоғлар ортидан тезроқ бош кўтаришга ошиқаркан. Ой эса туни билан унинг ҳуснига тўймас, тонгда унинг ортидан эргашиб маконига равона бўларкан. Дарҳақиқат, гўзаллик кимни мафтун этмайди, дейсиз. Мен ҳам тонг юлдузи билан суҳбат курсам ўз орзуларимни, хаёлларимни унинг қулоқларига шивирлайман. У эса гапимни эшитгандек, менга қараб туради. Назаримда, у ҳар тонг бахт рамзи сифатида самода жилва қилади. Кексалар тонгда турган рискли, омадли бўлади дейдилар. Бу бежиз эмас, менимча. Кимки ҳар тонг покиза ҳолда бу — Чўлпон жамолини томоша қилса, юлдуз ўз бахт, омад нурларини унинг йўлларига тўшайди. Ва шу кун ўша инсонлар учун насибали, омадли кун бўлади.

Анча ўйланиб тонг юлдузи Чўлпонга қарадим. У менга хайрлашиш вақти бўлди, дегандек нигоҳ ташлади. Мен унга, майли кетақол, дея шивирлайман. Яна айтишларича тонг юлдузини оймомо қўйиб юборгандан кейин унга шундай деб тайинларкан:

— Борақол, Кенжам. Ака-опаларингни чақириб кел ва самони барчангиз тўлдиришлар. Оймомо уни еру кўкка ишонмас экан. Чунки у энг кенжа ва хабарчи юлдуз экан. Кетиш учун мендан изн сўраётган кенжа юлдузга қараб мен ҳам сўзлайман:

— Эй, тонг юлдузи. Сен бахт учкунисан. Борақол, уни ерликларга ҳаля қил. Зеро, мен мурғак қизинг каби ҳар бир ерликнинг орзуси бу — БАХТдир.

**Ойниса ЭШМУРДОВА,**  
Самарқанд вилояти, Оқтош шаҳридаги 59-мактабнинг 8-синф ўқувчиси.

### ЕЗГУ ИШНИНГ СЕКИ YO'Q

“Оналар ва болалар” йилида бизнинг қишлоқда ҳам кўп хайрли ишларга кўл урилмоқда. Байрам арафасида бизга совға тариқисидида чучук сув келтирилди. Сувларимиз истеъмолга яроқсиз бўлганлиги учун, чучук сувни сотиб олардик. Энди истаган вақтимизда оқиб турган чучук сувдан фойдаланамиз.

Бундан ташқари қишлоғимизда ободончилик ишлари ҳам мақтагулик. Баҳор арафасида эзгу ишлар бошланди. Ариқлар, кўчалар, зиёратгоҳ жойларимиз ҳашар йўли билан тозаланди. Бу ишларга қишлоғимиз фаоллари Исомиддин ака Акбаров, Мастура опа Зикрияева, оқсоқоллар ва маҳалла побонлари бош-қош бўлишяпти. Биз ўқувчилар ҳам меҳнат дарсларида қишлоқдошларимизга ёрдам беряпмиз. Шу мўъжазгина қишлоқ барчамизга Ватан. Уни обод этиш бурчимиздир.

**Лайло ФОЗИЛОВА,**  
Бухоро вилояти, Гиждувон туманидаги С.Айний номли 4-мактабнинг 8-“А” синф ўқувчиси.

Qo'lingizdagi kitobchada o'qiganlaringiz sizlarni bir narsaga — suvni tejab sarflashga odatlantirmoq'i kerak. Buning uchun esa siz suvning nihoyatda kamyo'bligini, qimmatga tushishini, uni tejab-tergab ishlatish ulkan savob ekanini aql bilan idrok etasiz degan umiddamiz. O'xshatish bilan aytadigan bo'lsak, siz onangizni nechog'li hurmat qilsangiz suvni ham shu qadar e'zozlamog'ingiz lozim. Shunday ekan, yana bir karta eslatmoqchimizki...

— yer yuzida ichimlik suvi zahirasini nihoyatda oz; — siz televizorlarda ko'radigan okean suvlari shor, ular ichishga yaropqiz;

— oddiy suv vodoprovod orqali uyimizga yetib kelguncha unga maxsus ishlov beriladi, biz ishlatayotgan suvimiz uchun juda-juda oz miqdorda haq to'laymiz;

— hovlingizga, oshxona va hammomdagi vodoprovod jumrlaridan behudaga suv oqib yotishiga yo'l qo'ymang;

— nonning uvog'ini, suvni sh tomchisini avaylashga odatlaring;

— odam ovqatsiz bir oygacha chidasa, suvsizlikka bir hafta ham chidolmasligini unutmang.

## SUVGA HURMATSIZLIK — ONAGA HURMATSIZLIK BILAN TENG

15

ҚИРҚИШ ЧИЗИҒИ

БУКЎЛОВ ЧИЗИҒИ

Muammoni hal etish uchun mintaqada joylashgan barcha mamlakatlarni tushunishi lozimki, mintaqada yetarli miqdorda suv bor, lekin tanqislik sezilyapti, chunki amalda keragidan ortiq sarflanayapti... (Biz) o'zimizga bog'liq ishlarni amalga oshirmog'imiz lozim, bugun ixtiyorimizda bo'lgan mavjud vositalar bilan suvdan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishimiz kerak...

**Islom KARIMOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

2

10

Suv haqida rivoyat

## OQQAN DARYO OQAVERADI...

Juda qadim moziydan bizgacha yetib kelgan ajib bir rivoyat bor. Emishki, bir mamlakatning podshosi suyukli oq otini yeru ko'kka ishonmas, uni ko'z qorachig'iday asrar ekan. Kunlardan bir

kun podsho o'sha oq otini minib, shikorga chiqibdi. Toshqin daryodan kechib o'tayotgan paytda, ot nogahon g'arq bo'lib ketibdi. Podsho zo'rg'a jon saqlab, tasodif tufayli qirg'oqqa chiqibdi. Eng aziz otidan ajragan podsho sarkash daryo qasdigaga butun bir mamlakatning fuqarosini tik oyoqqa qalqitib, ajdar komiday haybatli o'nta kanal qazdiribdi. To'polon daryo suvini shu kanallarga oqizib, oq otini yutgan daryoni zaif qilib qo'yibdi. Ana shundan keyin podsho sal hovuridan tushibdi. Biroq...

Oradan o'n yil o'tibdi, yuz yil o'tibdi. Podsho qazdirgan barcha kanallar bora-bora qumga to'lib, daryo yana o'z o'zanidan to'lqin otib oqaveribdi. Alqissa, oqqan daryo oqmay qolmas, degan naql shu tariqa moziydan xotira bo'lib qolgan ekan.




7

Suvni bersang elga,  
Yashnarsan ming yilga.

Suvsiz hayot bo'lmas,  
Mehnatsiz — rohat.

Suzishni bilmasang,  
suvga tushma.





To'plovchi: Norali ASLOD

СУВ — НАҲОТ,  
НАҲОТНИ  
ҚИЛ ЕНТИҲОТ

1

БУКЛОВ ЧИЗИҒИ

TONG YULDUZI - 2001

Орнини куткармш хаккаро фонан  
БЕГ АРЕНТАМН

СУВ — АЗМЭ;  
СУВНИ ТЕЖАНИ!

16

ҚИРҒИЗ ЧИЗИҒИ

8

Og'ir toshni suv eltmas.

Suv keldi — nur keldi.

Toza ko'zaning suvi toza.

Toqqa yog'sa, cho'l obod,  
CHO'lga yoqsa, el obod.

Baliq suv bilan tirik.

Daraxt tomiridan suv ichar.

Suvdagi kemanding izi bilinmas.

Chilla qori — yerning qoni.  
Yelib o'tgan suv yaxshi.Qor — yerning ko'rpasi,  
Yomg'ir — yerning sho'rvasi.Qor yog'di — don yog'di,  
Yomg'ir yog'di — osh yog'di.

Qor yog'di — zar yog'di.

Qor yog'di — non yog'di.

БУКЛОВ ЧИЗИҒИ

9




BISMILLAHIR  
ROHMANIR ROHIYM

Quyida muqaddas Qur'oni karimdan suv haqidagi oyatlarni hukmingizga havola etmoqdamiz. Zero, suvning tiriklik manbai ekanligiga bular juda yaxshi dalil-isbotdir. Bu bebaho ne'matni asrab-avaylash, ko'ngil ko'zi ochiq kishi borki, dasturiga aylanmog'i lozimdir.

(Ey mushriklar), sizlarni yaratish qiyinroqmi yoki osmonnimi?!


(Ya'ni, butun yer kurrasining atrofini o'zga sayyoralardan biron ziyon yetmasligi uchun tom-osmon bilan qoplab qo'yishga qodir bo'lgan zot uchun sizlarni yaratish yoki qayta tiriltirish hech gap emas-ku! Olohd uni bino qildi, shiftini baland qilib, tikladi. Va (osmon)ning tunini qorong'u qilib, (undan) kunduzini chiqardi. Va shundan keyin yerni yoyib — tekis qildi. Undan suvi-yu o'tloqlarini chiqardi. Va u (yer)ga tog'larni o'rnashtirdi. (Bularning barchasi) sizlar uchun manfaat bo'lsin deb (qilingandir)... „Van-noziot“ surasi (27, 28, 29, 30, 31, 32, 33-oyatlar).



Bolalar! O'rta Osiyodagi qo'shni respublikalar xududida joylashgan Orol dengizining suvi tobora kamayib borayotganidan xabaringiz bor. Shuni ham unutmangki, Orolni saqlab qolish borasida mazkur respublika davlatlari tomonidan o'zaro hamkorlikda juda ko'plab ishlar malga oshirilmogda. 1999 yilning 9 aprelda Turkmanistonning poytaxti Ashgabad shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalarining prezidentlari tarixiy Ashgabad deklaratsiyasiga imzo chekdilar. Mazkur hujjatta Orol dengizini qutqarishga qaratilgan barcha muammolar gamrab olindi. Muammoning o'ta muhimligidan kelib chiqib, Orolni qutqarish, Orol havzasidagi tabiiy muhitni asrab-avaylash, odamlarning, jumladan sizlarning tengdoshlaringiz hayotini asrashga qaratilgan tadbirlarga har bir respublika Prezidentlari navbatma-

13


қирқиш чизиғи



Bir zamonlar kishilar suv soatidan foydalanishgan. U soat shunday bo'lgan: yuqoridagi idishdan pastki idishga suv tomchilab turgan. Pastki idishdagi suv sathi vaqtni ko'rsatgan.


Suvsizlik organizmni halokatga olib keladi. Bu haqiqat kaptarlar misolida sinab ko'rilgan: tiriklik uchun zarur bo'lgan barcha omillar saqlangani holda tanasidagi suvning beshdan bir qismi kamayishi bilan qushlar o'ladi.

Odam bir yil mobaynida faqat ovqatlanish asnosida o'rta hisobda 60 tonna hayotiy namlik iste'mol qiladi.



12

буқлов чизиғи




## SUV BILAN BOG'LIQ O'ZBEK XALQ MADOLLARI

4

Yaxshilik qil, daryoga tashla, baliq bilat, Baliq bilmasa, Xoliq bilat.  
Bir kishi aniq qaziydi, Ming kishi suv ichadi.  
Birlashgan daryo bo'lur, Birlashgan imoq bo'lur.  
O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma.  
Pokliging - sog'liging.  
Gapning onasi - quloq, Suvning onasi - buloq.

қирқиш чизиғи



5


Ko'ngil kirin aytsa ketar,  
Qo'lning kirin yuvsa ketar.  
Og'ir toshni suv eltmas.  
Suv keldi — nur keldi.  
Toza ko'zaning suvi toza.  
Toqqa yog'sa, cho'l obod,  
CHO'lga yoqsa, el obod.  
Baliq suv bilan tirik.  
Daraxt tomiridan suv ichar.  
Suvdagi kemanding izi bilinmas.  
Ko'ngil kirin aytsa ketar,  
Qo'lning kirin yuvsa ketar.

Aziz bolajonlari!  
Agar oz fursat och qolsangiz biror yegulik yeb  
gorningizni to'ydirasiz, chunki ovqat  
vazifasini o'tovchi noz-ne'matlar juda-juda  
ko'p. Lekin tashna bo'lsangiz—chi?  
Tashnalkni gondirishning birdan-bir chorasi -  
suv ichishi! Chunki suvning o'rini bosadigan  
hech qanday narsa yo'q. Yeydigan ovqatimiz,  
choyimiz, muzqaymog'u konfetlarimizgacha  
— hamma-hammasini tayyorlashda albatta suv  
ishlatiladi.  
Shuni ham sira unutmashingiz kerakki, suv -  
tabiatdagi eng nodir va arzanda modda  
hisoblanadi. Siz hammangiz nonni uvol  
qilmaslik haqidagi ota-onalaringiz o'g'itlarini  
ko'p martalab eshitgansiz, yerga tushib  
yotgan non uvog'ini qo'lingizga olib, hatto  
o'pib, chega olib qo'yishni ham bilasiz. Xo'sh,  
suvni-chi?  
Suvni tajashimiz kerakmi? Uni qanday  
tejaymiz? Suvni qadolashga qay tariqa  
odatlanamiz? Va gachon ularni o'rganamiz?  
"Tong yulduzi" gazetangiz orqali tayyorlab  
sizlarga taqdim etilayotgan ushbu kitobchaga  
kiritilgan hikmatli so'zlar, maqol-matalar,  
sizlarga ana shular haqida tasavvur beradi.

БУКЛОВ ЧИЗИФИ



ҚИРҚИШ ЧИЗИФИ



Birov suv topolmaydi ichgani,  
Birov kechuv topolmaydi kechgani.

Suv bilan ekin o'sar,  
Tarbiya bilan — odam.

Suv bor yerda hayot bor.

Suv — yorug'lik.

Suv — zar, suvchi — zargar.

Suv ichganingda ariq  
qaziganni unutma.

Suv oltindan aziz.

Suv qatراسi — dur qatراسi.

Yurgan — daryo,  
O'tirgan bo'yra.

БУКЛОВ ЧИЗИФИ

navbat yetakchilik qilishga kelishildi.  
Muhitaram yurtboshimiz Islom Karimov Orol  
muammosini dunyoning eng obro'li  
minbarlarida turib jahon hamjamiyati  
e'tiboriga yetkazdilar.  
"Global ekologik fond" (kitobchani  
so'ngi sahifasidagi GEF qisqartma atamasi  
mazkur fondni anglatadi)  
Loyihasi 1999-2002 yillarga mo'ljallangan.  
Uning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri  
suvni tejab-tergab ishlatish borasida  
jamoatchilik fikrini shakllantirishga  
qaratilgan.  
Demak, maqsadimiz ganchalik savobli va  
muhimligini sezgan bo'lsangiz kerak.  
Ya'ni, siz, bolajonlar suvning qadri  
ganchalik chuqur bilsangiz, uni asrab-  
avaylab ishlatish, sarflashga  
odatlansangiz niyatimizga yetgan  
hisoblanamiz.  
Hamisha suvdek aziz bo'linglar,  
dunyoda hech kim suvga zor  
bo'lmasin.




ҚИРҚИШ ЧИЗИФИ



Eng seryomg'ir joy Hindistonning sharqidagi  
Cherrapunji shahri. U yerda o'rtacha yillik  
yomg'ir miqdori 12500 millimetrga (12,5 metr)  
yetadi. Bu raqmni tasavvur etish uchun qiyos  
keltirsak, Cherrapunjida Toshkentdagiga  
nisbatan 30 karra ko'proq yomg'ir yog'adi.

Eng kamyog'in joy Chilining Arika shahridir. U  
yerda yiliga bor-yo'g'i bir millimetr yomg'ir  
yog'adi, xolos.

Odatda, katta suv havzalariga yaqin joylarda  
yog'ingarchilik ko'p bo'ladi degan tasavvur bor.  
Volga daryosining Kaspiy dengiziga quyilish  
joyidagi Astraxan shahri Ovrupoda eng  
kamyog'in shahar hisoblanadi. U yerda yillik  
yomg'ir 163 millimetrdan oshmaydi.



## ФАХРИЯ

Она Ватан. Ота юрт.

Хорижда “Сиз қаердансиз?” дейишса, “Ўзбекистонман” дея мағрур жавоб қайтарамиз. Гурур билан айтгулик мамлакатимиз бор энди.

Сафарда юрганзимизда, ёки олий ўқув юртида ўқиганимизда ҳам ота юрт номини энтиқиб айтамыз.

Ота юртга борганимизда эса, кексалар хира торган кўзларини тикиб сўрашади: “Кимнинг улган?” Отамиз исмини эшитиб, “Э, ҳа, шунақа дегин? Фалончининг неварасимисан? Буванг кўп яхши одам-да” дейишади.

“Кўп яхши одам...” Қари билгани пари билмас деганлари шу-да. Худди ўша жумлада авлод аждодларимиз шажарасига ҳурмат эҳтиром мужассам. Отамиз ҳам яшаш тарзи билан ўша эътирофга лойиқ бўлишга интиланган, бизни ҳам шундай умргузаронлик қилиш йўлида тарбиялайдилар. Ота-боболаримизнинг лафз йўлидан бориш бизга фахр бағишлайди. Бу - бетимсол фахрия. Фарғона водийси бўйлаб қилган сафаримда ана шу мушоҳадалар хаёлимдан кечди.

## ОЛТИАРИҚ ТАЪРИФИДА

Бу маскан ўзининг бодрингию турпи билан “Самарқанд нони”, “Қатқурғон майизи”, “Қува анори”, “Наманган олмаси”, “Чўнғаранинг девзираси” атамалари қаторидан муносиб ўрин эгаллаган. Ҳар бир масканининг ўзига хос кўли гул миришкорлари бўлгани каби, олтиариқликлар ҳам ўз маҳсулотлари билан етти иқлимга маълум ва машҳур. Бу ерда санамай саккиз дегувчилар йўқ. Режали иш — бежокли иш тутгучилар юрти бу.

Олтиариқликлар фақатгина шу икки неъмат билан донг таратиб қолмай, одамларнинг бағрикенглиги, ҳазил-мутойибага ўта мойиллиги билан довруғ қозонган.

Биласизми, болалар, бу йилги обҳаво олтиариқликлар учун бирмунча ноқулай кечди. Ёз ичи келган “чақирилмаган меҳмон” - сел оқибатида экин майдонлари “ювилиб” кетди; Токзорлар ағанаб, эндигина шира йиғаётган узумлар лой билан қоришди. Ғўзаларни айтмайсизми?... Ўшанда юракларим симиллаб, увишиб кетган эди. Мавлоно Муқимийнинг “Кўқондан Шоҳимардонга” деб номланган саёҳатномасидаги:

**Олтиариқ курсин ўшал,  
Селларда қолдим бир маҳал.  
Бўлдим ивиб, ёмғурда шал,  
Тун шилта, хўл эзар экан,** —

деган сатрлари ёдимга тушган. Шоирку бу сатрларни юз йил нарида ёзган. У пайтларда бу ерлар қуруқ даштдангина иборат эди. Олтиариқдан иборат худуд серсувлиги туфайли тирикчилик манзилгоҳларига айланди. Ўша-ўша матонатли халқ табиат инжиқлари олдида бўшашмай келмоқда. Ўша ариқлар ҳали ҳам одамларнинг меҳри каби шарқираб оқиб ётмоқда.

## АЛПҚОМАТ ГУРУРЛАР

Олтиариқ дейишса, энг аввало,

кўз олдимга Ўзбекистон қахрамони, малоҳатли ижод соҳиби - зукко устозимиз Эркин Воҳидовни келтираман. Табиатан ғўша янглиғ феъли кенг инсон у киши! Суҳбатларидан Навоий нафаси сезилиб тургучи, ҳикматларга бой меҳридарё шоир ўзлари билан кўп мартаба мулоқотда бўлиб, баҳридилим очилган. Олтиариқ — у кишининг Фахрияси!

Ёки лабида бир чимдим мутойиба билан босиқ, оқибат кўргазувчи, Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджонни олайлик. Анвар ака ўзининг ижодидаги олтиариқликларга хос табиати билан — Гулматю Мешполвони, Аламосони билан алақачон кўнглимиз тўридан жой олган. Мен айниқса, Охунжон Мадалиевни — соддадил укамни дил оғриғи билан

(Очиғини айтайми? Мен шу кунга қадар болажон — бола табиатли раҳбарни биринчи бор учратишим. Ҳар бир саволингизга кулиб туриб жавоб берарканлар. Муносабатлари ҳам оддий. Худди синфдошинг билан суҳбатлашаётгандек сезаркансан ўзингни).

Мактаб раҳбарлари ҳам гурурланишади. Худди сизу бизга ўхшаб. Лекин улар ўз болалари — ўқувчилари билан фахрланишади. Иброҳимжон ака ҳам 11- синф ўқувчиси Нафиса Солиева, 8-синф ўқувчиси Хуршида Отахонова, 7-синф ўқувчиси Нафиса Солиева (сезгандирсиз, 11-синфда унинг адаши бор экан.) 6-“А” синф ўқувчилари — Жумагул Тожибоева, Сайёра Худойберганоаларни оғизларидан бол томиб мақ-

ҳақиқий “ишбилармон”лик деса бўлади. Бунақанги буфетчи опани топиш қийин бўлса керак?

## ЯНГИ МАКТАБ ҚАЧОН ҚУРИЛАДИ?

1980 йили банкрот бўлган туман ёғоч ҳиссадорлик жамиятининг биноси мактабимизга ажратиб берилган,- дейди Иброҳимжон ака ҳижолатлик билан. - Ошхонамиз ертўлада жойлашган. Ноқулай, деворлари салга нурайди, зах. Лекин 2005 йилгача замонавий типдаги мактаб биноси қуриб беришга ваъда қилишган.

— Унғача-чи...

— Ҳоқимимиз кўлидан келганча ёрдам бериб турибди. Нўмонжон Омонов бир сўзли раҳбар. Сўзининг устидан албатта чиқади.

— Синфхоналари ҳам булбулнинг қафасига ўхшар экан... Инвентарлар эса дақиқюнусдан қолган, яроқсиз...

— Ҳа, ҳозирча шундай... Мусулмончилик ҳам аста-секинлик билан-да.

— Кенгга кенг дунё деб, ўтириш ярамайди-да,- дейман мен ҳам олтиариқчасига. - Йиғламаган болага кўкрак тутмайдилар.

Ўртадаги ҳижиллик кўтарилди. Яйраб кулишдик.

## XXI АСР — РУШНОЛИК АСРИ

Биз бу ердаги устозлару тенгдошларингиз билан суҳбатлашдик. Уларнинг орзу истаклари билан қизиқдик:

“Янги мактаб қурилса эди” — ҳаммасининг армони шу.

— Биз ҳам бошқа тенгқурларимиз қатори ёруғ ва шинам хоналарда ўқишди истаймиз,- дейишади улар.

Ҳақли талаб. Ўйлаймизки, тўрт йил кетма кет қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотлари режасини қойиллатиб келган олтиариқлик раҳбарлар бу ишнинг ҳам уддасидан чиқадилар.

— Президентимиз комил инсон тарбиясига жиддий эътибор беришни талаб қилмоқдалар,- дейди Шўхратжон ака Шодиев. Ҳоқимимиз ҳам у киши билан ҳамфикр ва ҳамқадамдир. Ажаб эмаски, янги асрда янги мактаб биносида ўқув йилини бошласак.

Кўпчиликнинг фикрига қулоқ тутиш доноларга хос фазилат. Доношлари ва деҳқонлари довруғ таратган Олтиариқ худудидан янги маърифат ўчоғи қад ростлашига жуда-жуда ишонгимиз келди. Чунки ёш авлодни ўйлаш ҳам фозилларга хос фазилатдир.

Собир ЖАББОР.

# ЮРТ ДОВРУҒИН ФАРЗАНД ОШИРАР

эслайман... Охунжон бир келиб кетди. (Жойи жаннатда бўлсин). Дала-туз миришкорларидан тортиб, лалли сўз миришкорларигача Фахрия билан яшайдилар. Уларнинг фарзандлари ҳам ўзларига муносиб. Она ватан, она юрт довруғини етти иқлимга ёйиш тараддулида юрган тенгдошларингиз улар.

## ОСМОННИ ЕЛКАДА ТУТГАНЛАР

Фарғона йўлидан Олтиариқ тумани марказига бурилишнинг ўнг томонига қараб юрганзимда бу ерда мўъжазгина бир мактаб жойлашганига кўзим тушди. Ундаги лавҳани ўқийман: “Олтиариқ тумани, Қалчугай қишлоғи, Усмон Юсупов номли 27-ўрта мактаб”

— Мактаб раҳбари ким, — деб сўрадим.

— Тарих фани ўқитувчиси Иброҳимжон Тожибоев, — дейишди.

Мактабнинг ташқи ховлисига гап йўқ. Мевазор ва гулзор... Эҳ, ўқувчиларнинг одоби ундан ҳам ортиқ экан. Дуч келган ўнг қўлини кўксига қўйиб: “Ассалому алайкум” дейди. Кўнглим яйраб алик оламан.

Мактаб биносига кираверишда мени меҳнат-физика фани ўқитувчиси Анваржон ака Курбонов қарши олдилар. У киши бутун мактаб бўйича навбатчи эканлар. Мен у кишига мақсадимни айтдим. Иккинчи қаватга чиқдик.

## БОЛАЖОН ДИРЕКТОР

— Бу киши — Собир ака. “Тонг юлдузи”дан, дея танишгирди. Анваржон директор хонасига бошлаб кирар экан:

— Э, келинг, танишиб кўяйлик. Менинг исмим Иброҳимжон. Фамилият Тожибоев.

тадилар. Тўғри, аълочи ва интизомли ўқувчиларни ҳар қанча мақтасанг оз. Лекин мактаб раҳбарининг мақтовига ҳамма ҳам сазовор бўлавермайдилар.

— Ўтган ўқув йилида битирувчиларимиздан Анваржон Исломов ва Маъмура Кўзиевалар Фарғона Давлат Университетига, Дилором Шаропова Тошкент ҳуқуқшунос олийгоҳига ўқишга кирди, - дейди Иброҳимжон ака, олти нафар битирувчимиз эса ўрта махсус билим юртида ўқимоқда. Бу ҳам - фахрия.

Ҳақиқий раҳбар - ота-она каби бўлади. Эришган ютуқларингиздан унинг боши кўкка етади. Иброҳимжон аканинг завқланиб сўзлашидан мен ҳам завқланиб кетдим. Устозларимни эсладим...


## “ИШБИЛАРМОН” ОШПАЗ

Мактаб ошхонасининг буфетига тушдик. Аҳвол ҳавас қилгулик эмас. Печенье, тешик кулчалар терилган жойда пашшалар “ким ўзарга” пойга ўйнашаётир. Савдода турган йигитча эса бепарво. Худди циркдаги “жонглёр”дек.

— Бу киши буфетчимми?— сўрайман маънавият ва маърифат маркази раҳбари Шўхрат ака Шодиевдан.

— Йўқ, ошпазнинг ўғли, — деб жавоб қилди у.

Аниқлашимизча, ошпаз Раҳима опа Йўлдошеванинг ўғли Шўхрат тиббий кўриқдан ҳам ўтмаган экан. Опанинг ўзлари бўлмаган пайтда дуч келган одамни кўяверар экан-да. Ошпаз опа бу ерда ҳам овқат пиширувчи, тарқатувчи, идиш-товуқ ювувчи ҳам фаррошлик қилувчи экан. Демак, поллатта ушлаб, идиш тавоқ ювиб, овқат сузадилар. Қолаверса, буфет ассортиментидан ташқари-қурт, маъданли сув ва бошқа нарсаларни “отасининг нарҳи”ни кўйиб сотар эканлар. Қойил-ей, мана буни



Shahrimizdagi eski hovlilardan birida yashardik. YAqinda yangi qurilgan ko'p qavatli uylardan biriga ko'chib o'tdik. O'zingiz bir tasavvur qiling-a, yangi, barcha qulayliklarga ega, sharoitlari muxayyo bo'lgan xonadon. Qanchalik sevinganimizni bir tasavvur qilib ko'ring-a.

Ayniqsa, oyimning

**QUVONCHIMIZ UZOQQA CHO'ZILMADI**

suyunganlarini aytmasizmi? Eski hovlimizda kir-chir yuvishga juda qiynalardilar-da...

Lekin quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi. Bir hafta o'tar-o'tmas oppoqqina uyimizning devorlariga kimdir ingliz tilida juda xunuk so'zlarni yozib ketibdi. Harflarning kattaligi xuddi mening bo'yim bilan barobar.

Qo'shnilaridan birining aytishicha, bu ishni 12-13 yoshlardagi qizlar qilishgan emish. Oshxonasining oynasidan ko'rib qolib, „hay-hay“lagach, kula-kula qochib qolishibdi. Nazarimda o'sha qizlar o'qiydigan maktabda ma'naviyat, ma'rifat darslari o'tilmasa kerak.

**Nozima NAZAROVA,**  
Toshkent shahri,  
Mirzo G'olib mahallasi.

## ЗЕБОХОНГА АЧИНДИМ

Kўчамизда Зебохон исмли бир қизча яшайди. Унинг ақли заиф укаси бор. Ўзи жуда беозор бола, ҳеч кимга зиёни тегмайди. Нима десангиз ҳам, кулиб тураверади. Лекин маҳалламиздаги катта-ю кичик болалар, ҳатто қизлар ҳам уни мазах қилишади. Тегажохлик қилиб, ранжитишади. Укасини ҳимоя қилмоқчи бўлган Зебохон эса улар билан уришиб кетади. Ўзи калтак эса сўдики, укасига ҳеч кимни яқинлаштирмайди. Ўйин-кулгудан ҳам ҳам воз кечиб, укасини етаклаб уйига кириб кетади. Шундай кезларда Зебохонга жуда ачиниётган кетаман. Бундай ҳолатларни катталаримиз ҳам кўп бора гувоҳи бўлишган. Наҳотки, бегуноҳ болакайни ранжитаётган фарзандларига ота-оналари танбеҳ бериб қўйишмасан?

**Мухлиса МАҲКАМОВА,**  
Сирғали туманидаги А.Сариев маҳалласи.

## БИЛАҒОН БОЛАЛАР ДИҚҚАТИГА!

Сиз “Тонг юлдузи” газетаси саҳифаларида учрайдиган хатоларни албатта топиб, бизга ёзиб юборинг. Чунки атайин билағон ва топағонлигини синаш мақсадида ҳарфлар тушириб қолдирилади ёки қўшиб қўйилади. Тиниш белгилари ўз ўрнида ишлатилмайди...

Мақсадимиз: билимли бўлинг. Чунки осмонни юлдузлар, ерни эса билимчилар безар.

QULOG'INGGA GAPIM BOR



nogiron qizcha yashashini, onasi juda yomon ayol bo'lib, bolalarini ko'p

**YANA KIM BILADI DEYSIZ?**

urishishini aytdilar. O'zi juda yasanib yurar, farzandlariga esa unchalik e'tibor bermas ekan. Nogiron qizchasidan tashqari yana ikki o'g'li bor ekan. Katta o'g'li maktabga ondasonda borib, bo'sh vaqtlarida ko'chalarda mashina yuvar, ikkinchi o'g'li esa nogiron singilchasiga qararkan. Ayol nogiron qizini bolalar uyiga topshirib yuborishni xohlar ekan. O'g'illari esa yig'lab: -Singlimizni olib qolaylik, o'zimiz boqamiz,-deya zorlanishar ekan. Bolalarning otasi olamdan o'tib ketgan ekan. Dastlab, shunday bemehr onalar ham bor ekan-da, deb o'yladim. Keyin yana ikkilanib qoldim: balki u ayolga ham qiyindir. Bir o'zi ishlab, ro'zg'or tebratsinmi, yo nogiron qizchasiga qarasinmi? Yana kim biladi deysiz?

**Zilola YULDOSHEVA,**  
Yunusobod tumanidagi

Yusuf Mo'minov nomli maktab o'quvchisi.

Elyor ismli 8-sinfda o'qiydigan jivanim bor. Tunov kuni maktabdan biroz hayallab qaytdi. Sababini surishtirsa, sinfdoshi Azizning bir haftadan buyon maktabga kelmayotganligi bois, o'qituvchisi ularni „xabar olib kelinglar, balki tobi qochib qolgandir“ deya uyiga jo'natganini aytdi.

-Bilasizlarmi, Azizning maktabga kelmay yurganini oyisi bilmas ekan. Bizdan eshitib, hayron bo'lib qoldi,-deya gapini davom ettirdi

tushlik qila turib.-Har kuni maktabga ketyapman deb, billiardxonaga borib yurarkan. Oyisi koyisa, sochimni oldirganim uchun bolalardan uyalgandim, debdi. Shu ham bahona bo'libdi-yu... Elyorning gaplarini eshitib o'ylanib qoldim. YAqinda billiardxonada ishlaydigan bir tanishimning: „Topish-tutishim chakki emas. Axir bir soat o'ynash uchun 500 so'm to'lashadi-da. Ayniqsa, bolalarning keti uzilmaydi“ degan gaplari yodimga tushib ketdi.

-Bolalar shuncha pulni qayerdan olishadi?-deb so'raganimda, „Buyog'i bizni qiziqirtirmaydi“ deb javob bergandi.

Qishki ta'til kunlarida xolamnikiga borgandim. Bir kuni qo'shnilarining hovlisidan baqir-chaqir tovushlar, kichkina qizning yig'lagan ovozi eshitilib qoldi. Bir ozdan so'ng yana jimib qolishdi. Shunda xolam qo'shni hovlida bir

urishishini aytdilar. O'zi juda yasanib yurar, farzandlariga esa unchalik e'tibor bermas ekan. Nogiron qizchasidan tashqari yana ikki o'g'li bor ekan. Katta o'g'li maktabga ondasonda borib, bo'sh vaqtlarida ko'chalarda mashina yuvar, ikkinchi o'g'li esa nogiron singilchasiga qararkan. Ayol nogiron qizini bolalar uyiga topshirib yuborishni xohlar ekan. O'g'illari esa yig'lab: -Singlimizni olib qolaylik, o'zimiz boqamiz,-deya zorlanishar ekan. Bolalarning otasi olamdan o'tib ketgan ekan. Dastlab, shunday bemehr onalar ham bor ekan-da, deb o'yladim. Keyin yana ikkilanib qoldim: balki u ayolga ham qiyindir. Bir o'zi ishlab, ro'zg'or tebratsinmi, yo nogiron qizchasiga qarasinmi? Yana kim biladi deysiz?

urishishini aytdilar. O'zi juda yasanib yurar, farzandlariga esa unchalik e'tibor bermas ekan. Nogiron qizchasidan tashqari yana ikki o'g'li bor ekan. Katta o'g'li maktabga ondasonda borib, bo'sh vaqtlarida ko'chalarda mashina yuvar, ikkinchi o'g'li esa nogiron singilchasiga qararkan. Ayol nogiron qizini bolalar uyiga topshirib yuborishni xohlar ekan. O'g'illari esa yig'lab: -Singlimizni olib qolaylik, o'zimiz boqamiz,-deya zorlanishar ekan. Bolalarning otasi olamdan o'tib ketgan ekan. Dastlab, shunday bemehr onalar ham bor ekan-da, deb o'yladim. Keyin yana ikkilanib qoldim: balki u ayolga ham qiyindir. Bir o'zi ishlab, ro'zg'or tebratsinmi, yo nogiron qizchasiga qarasinmi? Yana kim biladi deysiz?

urishishini aytdilar. O'zi juda yasanib yurar, farzandlariga esa unchalik e'tibor bermas ekan. Nogiron qizchasidan tashqari yana ikki o'g'li bor ekan. Katta o'g'li maktabga ondasonda borib, bo'sh vaqtlarida ko'chalarda mashina yuvar, ikkinchi o'g'li esa nogiron singilchasiga qararkan. Ayol nogiron qizini bolalar uyiga topshirib yuborishni xohlar ekan. O'g'illari esa yig'lab: -Singlimizni olib qolaylik, o'zimiz boqamiz,-deya zorlanishar ekan. Bolalarning otasi olamdan o'tib ketgan ekan. Dastlab, shunday bemehr onalar ham bor ekan-da, deb o'yladim. Keyin yana ikkilanib qoldim: balki u ayolga ham qiyindir. Bir o'zi ishlab, ro'zg'or tebratsinmi, yo nogiron qizchasiga qarasinmi? Yana kim biladi deysiz?

**Zilola YULDOSHEVA,**  
Yunusobod tumanidagi

Yusuf Mo'minov nomli maktab o'quvchisi.

YAqinda yana bir gap eshitdim. Billiardxonada ikki bola urishib qolibdi. Jahl ustida biri ikkinchisining qorniga o'yin o'ynaydigan tayoqni tiqib olibdi... Xo'sh, bolalar pulni qayerdan olishyapti? Ota-onalari darslardan qochib,

billiard o'ynab kelgin, deb berishmayotgandir, axir? Maktabda ovqatlanishi uchun bergan pullaridan tejashar ekan. Ba'zan uyidagi ul-bul narsalarni pihona sotib, puliga billiard o'ynayotgan bolalar ham uchrab turar edi. Shu o'rinda bir mulohaza: shaharlarimizda yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek bodrab ketayotgan billiardxonalarda ham nazorat o'rnatishning fursati kelmadimikin? Menimcha, bunday maskanlarga o'zi ishlab pul topa oladigan odamlarnigina, ya'ni 18 yoshdan yuqorilar kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bolalarimiz uchun esa shug'ullanaman desalar, sportning boshqa turlari ham serob.

**Muxayyo SHODMONQULOVA,**  
Chirchiq shahri.

**BILIARDXONALARGA NAZORAT KERAK**

## КУДУҚДАН СУВ ИЧАСИЗМИ?..

Момомнинг айтишларига қараганда, аввал ҳар бир қишлоқда бир-икки та ҳовуз бўлиб, ундан бутун қишлоқ одамлари сув ичар экан. Ҳозир эса ҳовуз у ёқда турсин, қудуқ сувлари ҳам ичмай қўйилди. Сабаби, экологик ҳолатнинг бузилиши. Бухоро суви шўр бўлганлиги туфайли Самарқанд суви қувурлар орқали оқиб келади. Ҳар бир ҳовлида артезиан қудуқлари бўла туриб, Самарқанд суви сотиб олинади. “Ичимлик суви” деб ёзилган трактор-машиналар кундан-кунга кўпайиб бормоқда. Катта темир бочкалар санитария жиҳатидан тозами, сувчи амакилар медицина кўригидан ўтганми, йўқми, аниқ эмас. Бунга ҳеч ким қафолат бера олмайди ҳам. Болалар орасидаги сариқ касаллиги ва бошқа турли хил юқумли хасталиклар асосий сабаби шунда эмасми?.. Сиз бунга нима дейсиз?..

**Феруза АШУРОВА,**  
Бухоро вилояти,  
Ғиждувон туманидаги  
6-мактабнинг 9-синф ўқувчиси.

## ЎҚИТУВЧИ “ТОПИЛСА”

### АЖАБМАС...

Мақтабимизда айрим фанлардан ўқитувчиларнинг етишмаслиги бор гап. Масалан, тарих фанидан мактаб бўйича битта мутахассис ўқитувчи бор. Иккинчисининг эса мутахассислиги бошланғич синф ўқитувчиси. Мана, учинчи чоракни бошлаб олганимизга ҳам бир ойдан ошди. Шунга қарамай (ўқув йилининг бошидан буён) бизнинг синфда бирор марта тарих дarsi бўлгани йўқ. Бошқа синфларда эса ярим йиллик баҳолар аллақачон чиқиб бўлган. Биз ҳам ўз ота-боболаримиз ҳаётини, яъни тарихимизни ўргангимиз келади, аммо...

“Тонг юлдузи”! Бизга ёрдам берарсан, деган умидда сенга мактуб йўлладик. Зора, сенинг аралашувинг туфайли бизга ўқитувчи топилса.

**Шаҳноза ҲАТАМОВА,**  
Тошкент вилояти,  
Тошкент туманидаги  
Н.Ғиёсов номли  
34-мактабнинг  
7-синф ўқувчиси.

## Зиратида

### “МЕНДАН

### КЕТГУНЧА”МИ?

Ўзингизга маълум, ўқувчи учун энг зарур ўқув қуролидани бири ручка ҳисобланади. Илгари ручка сотиб олиш учун ота-онадан бунчалик кўп пул сўрамас эдим. Сабаби, олган ручкаларим бемалол ярим йилга етарди. Лекин ҳозир ручкаларимнинг сиёҳи узоғи билан 15 кунга зўрға етяпти. Балки, ўзинг кўп ёзаётгандирсан, дерсиз. Йўқ, гап унда эмас. Ҳозир турли фирмалар номигагина маҳсулот ишлаб чиқариб, уни сотувга чиқаряптилар. Лекин қачонгача “Мендан кетгунча, эгасига етгунча”, қабилади иш тутишаркин?  
**Дилдора УМАРОВА,**  
Юнусобод туманидаги  
274-мактабнинг  
9-синф ўқувчиси.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Komil YUSUPOV,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Sunnatilla QO'ZIYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
**«Ijod dunyosi» nashriyot uyi**

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahilalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.  
“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 50100 nusxada ofset usulida bosildi.  
Korxonaning manzili:  
“Buyuk Turon” ko'chasi, 41.  
Buyurtma - G-2193  
Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahilalandi.

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137  
Manzilimiz 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.